
MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI**Dadajanova Dildufaxon Xusniddinovna***O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti***ARTICLE INFO****ABSTRACT:****ARTICLE HISTORY:***Received: 21.04.2025**Revised: 22.04.2025**Accepted: 24.04.2025*

Ushbu maqolada mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish mexanizmining samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KEYWORDS:

*mahalliy byudjet,
davlat byudjeti, byudjet
nazorati, ochiq byudjet,
byudjet daromadlari,
byudjet xarajatlari,
byudjet-soliq siyosati.*

Mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi va uni mustahkamlash yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishida, shu toifaga mansub bo'lgan boshqa barcha ishlarda bo'lgani singari, ushbu mavzuga bevosita daxldor bo'lgan bir necha nazariy masalalarga aniqlik kiritish yo'li bilan ularga nisbatan o'z pozitsiyamizni shakllantirmog'imiz lozim. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonidagi dastlabki bu qadam o'ziga xos bo'lgan muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning natijasida shu ilmiy-tadqiqot ishining mustahkam poydevoriga asos solinishi mumkin. O'z navbatida, ilmiy-tadqiqot ishining poydevori qancha mustahkam bo'lsa, uning mustahkamligiga asoslanib chiqarilgan xulosalar shunchalik to'g'ri va berilgan taklif-tavsiyalar shunchalik ishonchli, asoslangan va natijali bo'ladi.

Nazariy ahamiyatga ega bo'lgan bu boradagi birinchi masala "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi"ning iqtisodiy mohiyatini aniqlab olishdan iboratdir. Bizning nazarimizda, eng avvalo, ana shu masalaga nisbatan aniqlik kiritib olmasdan turib, uni aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimi to'g'risida gapirib bo'lmaydi, O'zbekiston Respublikasida

mahalliy byudjetlar daromad bazasi barqarorligi darajasi amaldagi holatining tahlilini amalga oshirish murakkabligicha qolaveradi va iqtisodiyotning erkinlashtirish sharoitida mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlash va uni mustahkamlash yo'nalishlarini yetarli darajada ilmiy va amaliy jihatdan asoslab bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan, bizningcha, birinchi navbatda, "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi" murakkab iqtisodiy mohiyatga ega ekanligini qayt etib o'tish kerak. Uning murakkab iqtisodiy mohiyatga ega ekanligi shu jarayonni o'zida bir so'z orqali ifodalashning iloji yo'qligidan ham yaqqol ko'rinib turibdi. Tahlilni chuqurlashtirmasdan, hatto sirtidan tahlil qilish natijasida ham biz quyidagi fikrni aytishga haqlimiz deb hisoblasak bo'ladi: "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi"ning iqtisodiy mohiyatini, eng oddiy, primitiv shaklda va tarzda alohida-alohida olingan va quyidagi ketma-ketlikda ifodalangan voqelikni o'zida mujassam etuvchi so'zlar va so'z birikmalari orqali aks etuvchi mohiyatlar sintezidan iborat deb hisoblash mumkin: "mahalliy" – "mahalliy byudjetlar" – "mahalliy byudjetlar daromadlari" – "mahalliy byudjetlar daromadlari bazalari" - "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi". Shuning uchun "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi"ning iqtisodiy mohiyatini aniqlash maqsadida, dastlabki qadamlardan biri sifatida, unda mujassamlashgan mohiyatni ifodalovchi so'zlar va iboralarning zahirida qanday ma'no-mazmun yotganligini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, buning uchun esa tegishli manbalarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda, dastlab "mahalliy" – "byudjet" – "daromad" – "baza" – "barqarorlik" so'zlari zanjirining ma'no-mazmuniga e'tibor bermoq va ularni aniqlab olmoq zarur.

"Byudjet" (ingl. budget – hamyon, mablag') iqtisodiy so'z bo'lib, (1) "Muayyan vaqt (yil, yilchorak) uchun ishlab chiqilgan, meyorlashtirilgan va qonuniy tarzda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi" va (2) "Shaxsiy kirim-chiqim majmui" ma'nolarini anglatadi [1].

"Daromad" (forscha – kirim; foyda; boshlanish, ibtido) so'zi o'zbek tilida to'rt ma'noda ishlatilishi mumkin bo'lib, shulardan birinchisi iqtisodiyotga tegishlidir: "Savdo-sotiq, mehnat, ishlab chiqarish sohalaridan davlat yoki ayrim shaxslar hisobiga kelib tushadigan sof pul va boshqa xil tushumlar; kirim".

"Baza" (yunoncha basis – asos, negiz) o'zbek tilida besh xil ma'noni anglatib, shundan to'rttasi iqtisodiyotga tegishli va quyidagi ma'nolarni anglatadi: (1) "Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy sohalarning asosi, negizi, tayanchi"; (2) "Muayyan moddiy narsalar to'plami, majmui; zahirasi"; (3) "Muayyan xizmatlar ko'rsatish va kerakli jihozlar bilan ta'min etib turish maqsadida barpo qilingan maxsus joy, makon"; (4) "Moddiy

zahiralar saqlanadigan bino, inshoot; ombor”. Va nihoyat, “barqarorlik” atamasi esa “turgʻunlik, mustahkamlik oʻzgarmaslik holati” degan maʼno-mazmunni bildiradi.

Biroq, bizning qarashimizcha, aynan shu soʻzlarning maʼno-mazmuni “mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi”ning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga yetarli emas hisoblanadi. Chunki “mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi”ning iqtisodiy mohiyati yuqoridagi soʻzlar anglatishi mumkin boʻlgan maʼno-mazmunlarning mexanik tarzda qoʻshilishidan hosil boʻlmaydi. Buning uchun “mahalliy byudjetlar” “mahalliy byudjetlar daromadlari” - “mahalliy byudjetlar daromad bazalari” - “mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi” soʻz birikmalari orqali ifodalanayotgan maʼno-mazmunni ham anglab olmoq taqozo etiladi. Muammoni yechishga shu tarzda yondoshiladigan boʻlsa, u holda biz, “mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi”ning iqtisodiy mohiyatini aniqlash borasida yana bir necha muhim natijalarga erishishimiz mumkin.

Xususan, “mahalliy byudjet” deyilgan qonunchiligimizda “Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablagʻlari jamgʻarmasini tashkil etuvchi bir qismi boʻlib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi” [2].

Mahalliy byudjetlarning daromadlari quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga yoʻnaltiriladigan mahalliy soliqlar, yigʻimlar, bojlar va boshqa majburiy toʻlovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga oʻtkaziladigan umumdavlat soliqlari, yigʻimlari, bojlari va boshqa majburiy toʻlovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi boʻyicha davlat mulkiga oʻtgan pul mablagʻlari;
- yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- qonun hujjatlarida taʼqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Mahalliy byudjetlarning yuqorida bayon qilingan daromadlari umumiydashgan xarakterga ega boʻlib, ularning mahalliy soliqlar va yigʻimlarga tegishli boʻlgan qismi, bizning nazarimizda, ancha konkretlashtirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, avvalo,

ularga nisbatan o'ziga xos bo'lgan ta'rifga ega bo'lmog'imiz lozim. Bu o'rinda biz prof. T.S. Malikov va prof. N.H.Haydarovlar tomonidan berilgan ta'rifni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Ular tomonidan mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Mamlakatning soliq qonunchiligiga, davlat hokimiyati organlarining qarorlariga va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining meyoriy-huquqiy aktlariga muvofiq o'rnatiladigan hamda tegishli mahalliy hududda to'lanishi shart bo'lgan soliq va yig'implarga mahalliy soliqlar va yig'implar deyiladi" [3].

Bir vaqtning o'zida, mahalliy byudjetlarning daromadlari sifatida mahalliy soliqlar va yig'implar amaliyotda fiskal nuqtai-nazardan yetarli darajada samarali bo'lmagan va ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan soliqlar va yig'implar sifatida e'tirof etilishini ham qayd etib o'tishimiz kerak.

Mahalliy soliqlar va yig'implar o'ziga xos tarzda klassifikatsiya qilinadi. Bunda ular davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatiga, o'zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab ikkiga bo'linishi mumkin: 1) qonunchilik hokimiyat organi tomonidan joriy etiladigan va mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig'implar; 2) mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qaroriga muvofiq joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implar.

Aksariyat hollarda 1-guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig'implarning tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq;
- yer solig'i;
- savdo qilish huquqi uchun yig'im;
- va boshqalar.

1-guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig'implarning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundan iboratki, ular bo'yicha konkret stavkalar davlat hokimiyat organlarining qaroriga muvofiq belgilanadi. Ularni undirish va to'lash tartibi esa tegishli organ (masalan, Moliya vazirligi yoki Davlat soliq qo'mitasi) tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig'implarning tarkibiga quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- kompyuterlar, hisoblash texnikalari va avtomobillarni olib sotganlik uchun soliq;
- avtotransportlar to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im;
- hududlarni obodonlashtirish uchun yig'im;
- maorif tashkilotlarining ehtiyojlari uchun yig'im;

- fuqarolarning boshqa maqsadli yig'implari;
- va boshqalar.

Har ikkala guruhga kiruvchi mahalliy soliqlar va yig'implarning tarkibi amaliyotda doimiy bo'lmasdan, tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib turishi, ularning ayrimlari bekor va boshqalari esa, aksincha, yangidan joriy qilinishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, "mahalliy byudjetlar daromadlari" bilan "mahalliy byudjetlar daromad bazalari" tushunchalari bir-birlaridan keskin yoki prinsipial ravishda farq qiladigan tushunchalar emas. Shunday bo'lishiga qaramasdan, agar "mahalliy byudjetlar daromad bazalari"dagi "baza" so'zi ma'lum bir sohaning "asosi, negizi, tayanchi" ma'nosida ishlatiladigan bo'lsa, "mahalliy byudjetlar daromadlari"ning hammasi ham teng ravishda ana shunday qabul qilinmasligi yoki e'tirof etilmasligi mumkin. Shu ma'noda "mahalliy byudjetlar daromad bazalari" va "mahalliy byudjetlar daromadlari" o'rtasida barobarlik belgisini qo'yib bo'lmaydi. Bu o'rinda "mahalliy byudjetlar daromad bazalari" "mahalliy byudjetlar daromadlari"dan, ma'lum darajada, kichik bo'lishi mumkin. Agar "mahalliy byudjetlar daromad bazalari"dagi "baza" so'zi "muayyan moddiy narsalar to'plami, majmui; zahirasi" sifatida e'tirof etiladigan bo'lsa, u holda ko'rinib turibdiki, "mahalliy byudjetlar daromad bazalari" va "mahalliy byudjetlar daromadlari" bir-biridan deyarli farq qilmay qoladi. Ko'pchilik hollarda amaliyotda ana shu oxirgi ikki holat nazarda tutilganligi uchun "mahalliy byudjetlar daromadlari" bilan "mahalliy byudjetlar daromad bazalari" tushunchalarini bir-birlaridan keskin yoki prinsipial ravishda farq qilmaydigan tushunchalar sifatida e'tirof etishga mantiqiy asos mavjuddir.

Va nihoyat, "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi" deyilganda, birinchi navbatda, ularning turg'unligi, mustahkamligi o'zgarmaslik holati nazarda tutiladi. Biroq, bizning fikrimizcha, bu yerdagi "turg'unlik" va "o'zgarmaslik holati"ni "mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligi"ga nisbatan "o'zgarmaydigan", "bir xildagi" yoki "qotib qolgan" shaklda ishlatish maqsadga muvofiq emas.

"Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish"ning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi yana bir muhim holat, bizning fikrimizcha, mahalliy byudjetlar daromadlarining respublikamiz amaliyotidagi shakllantirish tarkibiga borib taqaladi. Ma'lumki, amaldagi tartibga ko'ra, mahalliy byudjetlarning daromadlari, shartli ravishda, quyidagi ikki tarkibiy ko'rinishga ega:

- mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari;
- mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari.

Sirtidan qaranganda, ayrim hollarda, “mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish”ning iqtisodiy mohiyatini ochib berishda unga tegishli bo‘lgan daromadlar bir qismining “biriktirilgan daromadlar” va ikkinchi qismining esa, “tartibga soluvchi daromadlar” deb nomlanishi prinsipial ahamiyatga ega emasdek, tuyuladi. “Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish”ni shu byudjet daromadlarining ikki turi, ya’ni biriktirilgan daromadlar va tartibga soluvchi daromadlar belgilab berar ekan, bizning fikrimizcha, barqarorlikni belgilab berishda ular har birining ta’siri muhim ahamiyatga ega. Haqiqatdan ham bu narsaga e’tibor berilayotgan bo‘lsa, u holda “mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish”ni ta’minlashda daromadlarning qaysi turi, ya’ni biriktirilgan daromadlarmi yoki tartibga soluvchi daromadlar hal qiluvchi ahamiyatga egami, degan savolning aniq javobiga ega bo‘lamiz.

“Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish”ning iqtisodiy mohiyatini ochib berishda masalaga shu tarzda yondoshiladigan va shunga mos ravishda amaliyotdagi haqiqiy vaziyatdan kelib chiqiladigan bo‘lsa, u holda “mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish”ning iqtisodiy mohiyatini belgilab berishda (aniqlashda) tartibga keltiruvchi (soluvchi) daromadlarning roli ancha katta ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solishning mohiyatini ifodalovchi ta’rif shakllantirilganidan so‘ng, bizning nazarimizda, uning qanday ko‘rsatkichlar orqali ifodalanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda amalga oshirilgan tahlil natijalarining ko‘rsatishicha, mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solishni aniqlashga bir necha ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lgan alohida olingan tizim xizmat qilishi mumkin. Quyida ularning eng asosiylari xususida, qisqacha tarzda, to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

1. Mahalliy byudjetlarning xarajatlari darajasida ularning shunga teng bo‘lgan daromadlar bilan ta’minlanganligi; Bu ko‘rsatkich mahalliy byudjetlar xarajatlari va barcha manbalar hisobidan olingan uning daromadlarini o‘zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Respublikamiz amaliyotida qo‘llanilayotgan tartibga muvofiq ravishda mahalliy byudjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo‘lishi kerak. Bir vaqtning o‘zida, ularning taqchilligiga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Shu sababli yuqoridagi ko‘rsatkich, bizning fikrimizcha, Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solishni ko‘rsatuvchi birinchi va eng umumiy ko‘rsatkich sifatida e’tirof etilmog‘i lozim.

2. Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarning daromadlariga qayta beriladigan daromadlarni hisobga olgan holda mahalliy byudjetlarning daromadlari darajasini xarakterlovchi ko‘rsatkich; Uning darajasini Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarning daromadlariga qayta beriladigan daromadlarni hisobga olgan holda mahalliy

byudjetlarning daromadlari summasini mahalliy byudjetlar xarajatlarining umumiy summasiga bo'lib topish mumkin.

3. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'liq moliyalashtirilganligini ifodalovchi ko'rsatkich; Bu ko'rsatkichni mahalliy byudjetda ma'lum bir sanada moliyalashtirilishi rejalashtirilgan xarajatlar summalarining haqiqatda moliyalashtirilgan summalarga taqqoslab aniqlasa bo'ladi. Bu yerda ham mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligi nuqtai-nazaridan ma'lum bir sanada moliyalashtirilishi rejalashtirilgan xarajatlar bilan ularning haqiqatda moliyalashtirilgan darajalari teng bo'lmog'i lozim va sana jihatidan ham ular bir-biriga to'g'ri kelishi zarur.

4. Mahalliy byudjetlarning daromad bazalari sifatida e'tirof etilgan daromadlarning belgilangan summalarda va o'z vaqtida byudjetga to'liq tushib turishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich; Uning darajasini haqiqatda mahalliy byudjetlarning ixtiyoriga kelib tushgan daromadlar summalarining mahalliy byudjetga kelib tushishi rejalashtirilgan daromadlarning summalariga nisbatlab aniqlash mumkin.

5. Mahalliy byudjetlar umumiy daromadlarining tarkibida biriktirilgan daromadlarning salmog'i orqali ifodalanuvchi ko'rsatkich; Uning darajasini mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari summasini ularning umumiy daromadlari summasiga bo'lib topish mumkin.

6. Mahalliy byudjetlar umumiy daromadlarining tarkibida tartibga soluvchi daromadlarning salmog'i orqali ifodalanuvchi ko'rsatkich; Yuqoridagi tartibni inobatga olgan holda uning darajasini mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari summasini ularning umumiy daromadlari summasiga bo'lib topish mumkin.

7. Mahalliy byudjetlarni maqsadli subvensiyalashtirish ko'rsatkichi; Uning darajasini mahalliy byudjetlarga berilgan maqsadli subvensiyalar summalarining shu byudjetlar xarajatlarining umumiy summasiga nisbati orqali aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. Birinchi jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 394.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi qonuni, 3-modda. Shuningdek, qarang: Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002. –B.157.
3. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari. – T.: Iqtisodmoliya, 2007. – B.36-37.

